



# МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

*Илимий-методикалық журнал*

№ 6/4 2023

гуманитарные науки  
естественные науки  
технические науки







Академик Чаржоу Абдировтың

90  
жыллығы



# МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



*Илимий-методикалық журнал*

---

**2023**

**6/4-сан**

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы  
Жоқаргы Аттестация Комиссиясы Президиумының  
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз хәм хабар агентлиги тәрепинен  
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.  
№01-044-санлы гүўалық берилген.*



## МАЗМУНЫ

|   |   |
|---|---|
| Султанов Б. Академик Чаржоё Абдиоровтын туўылғанына — 90 жыл. Ибрат мектебин жаратқан инсан ..... | 7 |
|---|---|

### ТИЛ ҲЭМ ӘДЕБИЯТ

|  |    |
|--|----|
| Fozilov O. O'zbek va ingliz tillarida hosila nominalining motivatsion asoslari (perefrazalar misolida) .....                       | 16 |
| Botirova Sh.I. Ulug'bek Hamdam qissa poetikasida ong osti kechinmalarida axloq talqini .....                                       | 22 |
| Juraeva G.A. Bolalar she'riyatida shakliy izlanishlar .....  | 27 |
| Aliyeva Z. Ornitonom komponentli ingliz va o'zbek idiomalarining tahlili .....   | 36 |
| Alimova Sh. Ingliz va o'zbek tillarida pora va ta'magirlik konseptlarining lingvomadaniy va semantik talqini .....                 | 41 |
| Aliyeva Z. Ingliz va o'zbek tilida ornitonim komponentlari bo'lgan frazeologik birliklar haqida ilmiy qarashlar .....              | 45 |
| Eshquvvatova G. Ingliz va o'zbek tillarida frazeologizmlarning tasnifi food/taom komponentli frazeologik birliklari misolida ..... | 49 |
| Mardanov A. Основные понятия логико-семантических моделей .....  | 53 |

### ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

|   |     |
|---|-----|
| Maxmudova M. Yan Amos Komenskiyning pedagogik faoliyati va nazariyasi .....   | 57  |
| Karshiyev J.A. Talabalar ma'naviyatini rivojlantirishning innovatsion metod va vositalari .....   | 64  |
| Abdimurotov O.U. Geografiya darslarida mustaqil ta'limni tashkil etishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish metodikasi .....                             | 72  |
| Jamol'dinova O. Xalq pedagogikasida so'g'lom turmush madaniyati masalalari .....  | 82  |
| Irisboeva X.O'. Milliy didaktik terminologiya tizimining shakllanishi va taraqqiyot yo'llari .....  | 94  |
| Rasulov O. C. Оммавий жавобгарлик механизми маҳалла тузилмасини бошқариш самарадорлигини ошириш асоси сифатида .....  | 104 |
| Ismailov S.A. Bo'lajak kimyo o'qituvchilarida xalqaro baholash topshiriqlarining formati: kognitiv darajalari, kontekstlari, mazmun sohalarini tushuntirish ..... | 109 |
| Isabayeva M.M., Toshpulatova D.S. O'quvchilarda kreativ faoliyatni rivojlantirish funktsiyalari .....   | 116 |
| Jabborov M. Tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan ishlashning shakl va metodlari .....  | 121 |
| Irisboeva X.O'. Milliy didaktika bo'lajak o'qituvchilarning ilmiy-metodik kompetensiyasini shakllantirish omili sifatida .....                                    | 128 |
| Usmanova Sh. DJ. Kasbiy shakllanishda ijtimoiy faollik va intellektual xususiyatlar .....   | 132 |
| Mahkamova Sh. Innovatsion texnologiyalar asosida musiqa san'ati boshqaruvi .....  | 137 |
| Xo'jamqulov P., Musayev N., Muminova D. Umumta'lim maktablari o'quvchilarida ta'limiy-tarbiyaviy immunitetni shakllantirish yo'llari .....                        | 143 |
| Qayumov J. O'quvchilarga xonandalik asarlarini erkin va ifodali kuylatish uslublari .....   | 147 |
| Musayev N., Xo'jamqulov P. O'zbek milliy maqom san'atini yosh ijrochilarga o'rgatishda etibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar .....                            | 154 |
| Rajabova S. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda Marvelous Designer dasturidan foydalanish metodikasi .....   | 159 |
| Yunusov O. Musiqa ta'limida qo'shiq kuylash ijodiy faoliyatga o'rgatish .....   | 165 |
| Umarov A. Pedagogik-kasbiy kompetentlik ta'lim jarayonini rivojlantirishning muhim omili sifatida .....   | 171 |
| Eshankulova D. Umumta'lim maktablarida kimyo fanining o'qitilishi va zamonaviy interfaol metodlarning qo'llanilish uslublari .....                                | 176 |
| Yadgarova D. Talabalar valeologik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish .....  | 181 |
| Lafasov B. Texnologiya fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarni muhandislik kasblariga yo'naltirishda "STEAM – ta'lim" .....                                      | 186 |
| Mo'minov K. Forsayt texnologiyalar asosida talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion yondashuv .....                                  | 190 |



## ULUG‘BEK HAMDAM QISSA POETIKASIDA ONG OSTI KECHINMALARIDA AXLOQ TALQINI

*Botirova Sh.I.*

*Chirchiq Davlat pedagogika universiteti professori,  
pedagogika fanlari doktori*

**Tayanch so‘zlar:** falsafa, mantiq, psixologiya, obrazlilik, personaj, polifonik yo‘sinda, mif, botiniy, psixoanalitik.

**Ключевые слова:** философия, логика, психология, образность, персонаж, полифонический образ, миф, внутренний, психоаналитический.

**Key words:** philosophy, logic, psychology, imagery, character, polyphonic image, myth, internal, psychoanalytic.

Kirish. San‘at asarida aks etgan falsafa, mantiq, psixologiya, odob-axloq tamoyillari yozuvchining o‘zi tomonidan qabul qilingan kanonlardan biri deb tushunmaslik lozim. Chunki san‘at asari muallifning ongli hayotidan “uzib olinib” uzatilgan bir parcha, xolos. Undagi ruhiyat, obrazlilik, ko‘p qatlamlilikni yuzaga keltiruvchi asosiy jihat – vaziyat va sharoit taqozosi mahsuli ham deyish o‘rinli. Vaziyat – yozuvchi yoki muallif dunyosida o‘zgaruvchanligi bilan ajralib turadi. Sharoit – muhit tartibotlarini qabul qilib, shu yo‘sinda yashash qonuniyatlarini o‘zida jipslashtiradi. Vaziyatning matn pozitsiyasida namoyon bo‘lishi ko‘p hollarda “ongimizda uyg‘onmagan borliq”ning in’ikosi o‘laroq vujudga keladi. “San‘at asari yana shuning uchun ham murakkab hodisaki, unda badiiy matnning yuz va ichki qavatlaridagi ma’nolar bir-birini rad qilishi, muallif o‘ylamagan, istamagan mazmunlar g‘ayriixtiyoriy ravishda voqealanishi, buni hatto muallif o‘zi hech qachon sezmay-bilmay qolishi ham mumkin. San‘at asarini har bir o‘quvchi o‘zicha qabul qilishi, o‘zicha “hukm” chiqarishi, undan o‘zicha ta’sirlanishi mumkin”. Darhaqiqat, yozuvchi U.Hamdami qahramonining o‘y-xayollari, tafakkur tarzi ong va tuyg‘uda aks etadigan turfa kechinmalarni ilgari suradi. Bir qarasangiz, qahramon darvesh, orif, zohid, bir qarasangiz, shoir, yozuvchi, olim kabi fikrlaydi. Shu tarzda o‘z hayotini o‘nglamochi bo‘lgan adib voqelikni qahramonning o‘z oqimiga qo‘yib

beradi. Muhabbat va g'azab, vujud vayronakorligi, ehtiroslar tartibsizligida qahramon chigal savdolarni boshidan o'tkazadi. U o'ta kurashuvchan va jasoratli SHAXSga aylanadi. Amerika yozuvchisi Uilyam Folknerning "Men o'layotgan vaqt" ("As I Lay Dying" 1930) romanida kuzatilgan monolog tasvir usuli U.Hamdamning "Yolg'izlik" qissasida qahramonni tahlil qilishga imkon tug'diradi. Matndagi aralash-quralash voqelik 3 ta qismda namoyon bo'ladi. Birinchi qism hikoyachi - roviy do'stining uyiga kelishi va daftarni olishi. Ikkinchisi o'sha daftardagi voqelikni o'qib berishi. Uchinchisi esa nihoyat daftarni o'qib, o'zining xotimasini keltirishi bilan yakun topadi. Asosiy voqelik ikkinchi qismda ro'y beradi. Monologning har bir lavhasida voqelik ichdan ochila boradi.

"Badiiy asarni tahlil qilar ekanmiz, ishtirok etuvchi personajlar bilan bir qatorda, muallif shaxsining ham ishtirok etayotganligini yo ko'rmaymiz, yoki ko'rib-ko'rmaslikka olamiz. Badiiy asarlarda muallif obrazi hikoya qilish uslubidan tortib, asarning tili va tasvir usullarida, hayotiy material va voqea-hodisalarga munosabatda ham aniq namoyon bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, muallif obrazi uning asarda yorqin ifodalangan estetik idroklari, tafakkuri, mafkurasi, tasvirlanayotgan narsa va illatlaridan tashkil topadi". Haqiqatdan ham, badiiy asar xoh u monologik usulda, xoh dialogik yo'sinda ifoda etilmasin, muallif obrazi voqelikda turli shakllarda namoyon bo'ladi, biroq aynan asardagi obrazni muallifning shaxsiy, intim hayotidan "olingan parcha" deb tushunmaslik kerak. Undagi ruh, kayfiyat, ongli va ongsiz hayot nashidalarini muallifning o'zidan ajralib chiqqan ikkinchi bir maydon, hudud, manzildir. Ko'pchilik hollarda muallif-roviy-qahramon tushunchasi noto'g'ri qo'llaniladi. Qahramonni o'zidagi bor sifatlardan olib, jamiyatdagi shaxsiy-hayotiy kuzatish, tajribalardan kelib chiqqan holda qayta tipiklashtiradi. Bu tipiklashtirish yozuvchining maqsadga qanday yondashuv prinsipidan turib olib borgani bilan o'lchanadi.

U.Hamdam ongi shuurida aks etgan "borliq" hayot materialini qayta ishlashgacha bo'lgan iztirobli va mashaqqatli, azob-uqubatli masofani bosib o'tganligini e'tirof etish joiz. Yuqoridagi keltirilgan parchada: "Qo'lingni ber, Xudo!" deb nola qilishi, hayot charxpalagida chirpirak qilib uchirilgan, o'z moddiy va ma'naviy turmush muvozanatini saqlash bobida ikkilana-ikkilana oxiri Yaratgandan bo'lak hech kimi qolmagan bir mazlum holatini kuzatish mumkin.

"Psixoanalitiklar ijodni ongsiz hislarning ong qatlamiga qalqib chiqishi deb baho beradilar. Ilhom aql bo'g'ib qo'ygan, aqliy faoliyat to'xtatib qo'ygan ong osti hislarining birdan yuzaga qalqib chiqishidir. Buyuk ijodkorlar ong osti



his-kechinmalarining yuzaga qalqib chiqishini oddiy ko'nikmaga aylantirgan, ongli faoliyat va ong osti kechinmalari muvozanatini saqlay olgan kishilardir. Psixoanalitika fani inson ichidagi "men"ni izlar ekan, u ruhiy dunyodagi shu ruhiyatga xos bo'lgan "mif"larga duch keladi. Bu "mif"lar o'zining inson ruhiy dunyosiga ta'siri jihatidan ilk ajdodlarning miflaridan deyarli farq qilmaydi. Binobarin, J.Eshonqul ta'biriga shuni qo'shimcha qilish mumkinki, tush va xotira, o'tmish va bosib o'tilgan hayot manzaralari yozuvchiga benihoya keng imkoniyatni tuhfa qiladi. Bunday kayfiyat ta'sirida ijod – ruhiy sog'ayish, botiniy dardni mustahkam asosga yo'naltirish, undan go'zal bir manzara kashf qilishga yetaklaydi. Munaqqid A.Rahimov qayd etishicha: "Ong ostida sodir bo'ladigan sezgi, tuyg'u, tasavvurlar inson ruhiyatining so'z bilan hech qachon ifodalab bo'lmaydigan qirralarini muvozanatdan chiqarib, ommaga taqdim qilishga imkon yaratadi. "Ong osti deganimiz insonning butun vujudini qamrab olgan bir-biriga o'tib turuvchi ongli holatini ham, ongsiz holatini ham o'z ichiga oladi. Unda fikr oqimi qandaydir botiniy kuch ta'sirida paydo bo'luvchi g'irashira ko'ngilga kelgan narsalar qiynalmasdan, o'z-o'zidan uzluksiz quyulib kelaveradi". Bundan kelib chiqadiki, ijodkor har bir tasvirda berayotgan tafsilotni monologik, polifonik yo'sinda ham qahramonlar psixikasidan kelib chiqqan holda uyg'unlashtirishi mumkin. Negaki, ong va tuyg'u nisbati voqelikni ba'zan maromdan o'zgartirib yuborishi, ba'zan o'sha ifodadan boshqa bir yo'singa boshlashi mumkinligi ayonlashadi. Polifonizm bir vaqtning o'zida ham shaklga, ham mazmunga, ham ifoda tabiatiga taalluqli unsur bo'lib yuzaga chiqadi. U.Hamdani "Yolg'izlik" qissasidagi ruhiy muvozanat sari dadil borayotgan ismsiz qahramon psixikasida ajib o'zgarishlar bilan hayotga boqimandalik kayfiyati bilan kirib kelayotgan olomondan uzoqlashish tadbiri ham alohida ajralib turadi. Uning qahramoni jamiyatga begona ko'z bilan qaramaydi. Nega, nima uchun? Savollari tinimsiz uni ta'qib qilaveradi. Asarda ko'p nuqta ong ostida yashirinib yotgan hayot haqidagi sir-bilimlari o'zi yashab turgan muhitdan ayro emas, aslo! Chunki qahramon voqelikning faol – qo'mondoni! Uning ichki "men"ida vujudga kelgan xayol va hayot falsafasi jamiyat tartibotlarini bir-biriga o'tib turishini tasvirlab boradi.

Qissa qahramoni har bir tasvirda olam va odam muammolarini yechishga qiziqsinib yashaydi. Jism lazzatidan baland ko'tarilganda, u axloqiy fazilatlarini tartiblashtiradi. Hech narsadan qoniqish tuymagan qahramonning yanada ko'proq ruhiy muvozanatga talpinishi sinalgan haqiqat. Chunki qahramon ayni shu tobdagi jism va ruh ehtiyojining jirkanch basharasidan o'zini olib qochishga urinadi. U oddiy kayfiyatda o'zini notavon va g'arib, yolg'iz va ojiz his etadi. Faqat ruhoniylar ko'tarilish – avliyolarga xos fazilat ekanligini, Allohga qarata:

“Senmi yoki men nohaq?” deb keskin tragik savollar qo‘yishida aniq mantiqni ko‘ramiz.

Yozuvchi U.Hamdamning “Yolg‘izlik” qissasida qahramonni shafqatsiz hayot qo‘ynida tinimsiz ta‘qib qilayotgan axloqiy tamoyillardan sitilib chiqish, uning aqlsizligidan emas, aksincha, u o‘zini yolg‘izlikda haqiqatni ayta olish uchun kuch topishida bilinadi. Asardagi monologik nutq qahramon tabiatidagi uzil-kesil o‘zgarishlarni to‘laqonli namoyon qilib turibdi. Biroq bu o‘zgarishlar mantiqdan tashqarida sodir bo‘ladi. U jamiyatga aralashgan kuni fojeani his qiladi. Demak, asl maqsad qahramonni ikki hayot va ikki vaziyat bag‘rida sinovdan o‘tkazadi. Qahramon milliy mental xususiyatlarni har qancha ixotalashga urinmasin, baribir “qachondir chegara buzilishi”ga ishora qilinadi. Bu hayot qonunlari bilan chambarchas bog‘liq ekanligini taqozolaydi.

Xulosa qilib aytganda, U.Hamdam qissa poetikasida ong osti kechinmalarida axloq masalasiga oshkor munosabatda bo‘ladi. U qahramondan qachondir hamma bilishi mumkin bo‘lgan haqiqatni yashirmaydi. Tavba - tazarru, haqiqat va yolg‘on, maddohlik va ko‘zbo‘yamachilikni aniqlab oladi. Qahramon hayotini tahlikaga qo‘yib bo‘lsa ham bilish zavqidan chekinmaydi. Haq taolo hukmining o‘zi yashab turgan jamiyatdagi aks-sadosidan aziyat chekadi. Ya’ni qalban boshqa, zohiran Alloh deya “bong” urayotgan tiyiqsiz va tuturiqsiz elita vakillarini ayovsiz tanqid ostiga oladi. Ayni shu o‘rtalikda muallif pozitsiyasi o‘zini yorqin ranglarda namoyon qiladi. U.Hamdamning “Yolg‘izlik” qissasidagi badiiylik modusi turli shakllarda ro‘y bergan voqelik xronologiyasidan iborat. Ong va tuyg‘uda zohir bo‘ladigan o‘shish-o‘zgarishlar yozuvchining dunyoqarashida azal-azaldan yashab kelayotgan hissiy kechinmalar bo‘lib tuyuladi. Qahramon dunyoga bir so‘z aytish uchun kelgandek: “Adolat qani?” deyishida qabarib ko‘rinadi. U adolatni hatto tabiatdan ham izlaydi. Tunda oy, yulduz, osmon va qorong‘ulik hamrohlik qilsa, kunduzlari salqin shabadalar va yomg‘irli saharlar do‘st tutinadi. Adib tabiat va jamiyat, inson munosabatlarida barq urgan hayotning o‘zgarib borayotgan asl qiyofasini o‘quvchiga tushuntirmoqchi bo‘ladi. Natijada o‘quvchi ayni “chigal yuk”dan hamma narsani anglay olmaydilar. Ayni shu jarayonda haqiqiy modernizm hodisasi o‘z ruhiyatini namoyish qiladi. Yozuvchi inson ruhiyatida kechuvchi psixologik jarayonlarni, o‘y-xayollarida tuyqus paydo bo‘lgan assosiatsiyalar bilan betartib almashinib turishini o‘z nazoratiga oladi. Qahramon ma’naviy intellekti namoyishi qissa arxitektonikasida o‘ziga xos mavqeni kasb etadi. Demak, qissadagi voqelik tashqi olam bilan bog‘lanib, sira chiqisha olmayotgan odam taqdirini bevosita tartiblashtirib boradigan moduslardan iboratligi ayonlashadi.





### Adabiyotlar:

1. Jabborov E. Folklor : obraz va talqin. – Qarshi: Nasaf, 1999.
2. Hamdamov U. Yolg‘izlik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
3. Muhammadjon Xolbekov. XX asr modern adabiyoti manzaralari. XX asr modernizm prozasining tadrijiy talqini Manba www.kh-davron.uz saytidan olindi. 2018 yil.
4. Gegel. Estetika.// Sharq yulduzi, 2014. №1-2.

#### РЕЗЮМЕ

Badiiy asar yozuvchining ongida bosib o‘tilgan, vaziyat sharoit mahsulidir. Asar asar bo‘lib shakllangunga qadar ong ostida o‘zoq va zalvorli yo‘lni bosib o‘tadi. Inson – koinotning eng aqlli va mukammal yaratig‘i. Yozuvchi ana shu yaratilgan botinini kashf qilishga diqqat qaratadi. Muallif ongini bezovtalagan, uning kechmishlarida aks-sado berayotgan o‘z-o‘zi bilan olishuvi ma‘lum ma‘noda yolg‘izlikka mahkum etilgan qismatni yodimizga soladi. Zamonamizning zabardast yozuvchilaridan Ulug‘bek Hamdamning ”Yolg‘izlik” qissasida muallif”meni” ,ushbu asarda axloq talqini o‘zgacha bir qiyofada gavdalanadi. ”Yolg‘izlik” qissasidagi ruhiy muvozanat sari dadil borayotgan ismsiz qahramon psixikasida ajib o‘zgarishlar bilan hayotga boqimandalik kayfiyati bilan kirib kelayotgan olomondan uzoqlashish tadbiri ham alohida ajralib turadi. Uning qahramoni jamiyatga begona ko‘z bilan qaramaydi.

#### РЕЗЮМЕ

Произведение искусства – это продукт ума писателя. Человек – самое разумное и совершенное существо во Вселенной. Писатель сосредотачивается на раскрытии внутренностей этого существа. Будоражившее сознание автора противоречие, отдающееся эхом в его прошлом, в известном смысле напоминает нам судьбу быть обреченным на одиночество. В этом произведении трактовка морали воплощена в особой форме. В повести «Одиночество» особенным является и событие удаления от толпы, которое приходит в жизнь с настроением снисхождения, со странными изменениями в психике безымянного героя, смело идущего к душевному равновесию. Его герой не смотрит на общество чужим взглядом.

#### SUMMARY

A work of art is a product of the writer’s mind. Man is the most intelligent and perfect creature in the Universe. The writer focuses on revealing the insides of this creature. The contradiction that stirred the author’s consciousness, echoing in his past, in a certain sense reminds us of the fate of being doomed to loneliness. In this work, the interpretation of morality is embodied in a special form. In the story “Loneliness”, the event of moving away from the crowd is also special, which comes to life with a mood of condescension, with strange changes in the psyche of the nameless hero, boldly moving towards mental balance. His hero does not look at society through someone else’s eyes.